

UDK: 37.378:4

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI
O‘QITUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH USULLARI**

G'affarova Dilafruz Vaydulla qizi

Tadqiqotchi

Namangan davlat chet tillari instituti

E-mail: gdilafruz@mail.ru

+998 937762882

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchlarini nutqiy kompetensiyasini oshirishda samarali bo'lgan turli usullar va strategiyalar tahlil qilinadi. Ushbu tahlil natijalari, ingliz tili o'qituvchilarini o'qitish samaradorligini oshirishda kompetensiyaviy yondashuvni o'rganish va qo'llashning ahamiyatini tasdiqlaydi. Maqolada keltirilgan metodlarni bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda qo'llab borish natijasida ularning nutqiy kompetensiyasini oshirish hamda bu orqali malakali mutaxassisga aylanishlariga erishish mumkinligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Nutqiy kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, ingliz tili o'qituvchilari, ta'lim samaradorligi, ta'lim va rivojlanish

**МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ
ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ
КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА**

Гаффарова Дилафруз Вайдулла кизи

Исследователь,

Наманганский государственный институт иностранных языков

E-mail: gdilafruz@mail.ru

+998 937762882

Аннотация: В данной статье рассматриваются и анализируются различные методы и стратегии, которые доказали свою эффективность в улучшении речевой компетентности будущих преподавателей английского языка. Результаты исследования подчеркивают важность внедрения компетентностно-ориентированного подхода в обучении и развитии будущих преподавателей английского языка. Применение этих методов позволяет программам подготовки преподавателей эффективно развивать речевую компетентность студентов, делая их более уверенными и квалифицированными коммуникаторами на английском языке.

Ключевые слова: Речевая компетентность, компетентностно-ориентированный подход, преподаватели английского языка, эффективность преподавания, обучение и развитие.

METHODS FOR IMPROVING THE SPEECH COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS BASED ON COMPETENCY-BASED TRAINING

Gaffarova Dilafruz Vaydulla qizi

Researcher,

Namangan State Institute of Foreign Languages

E-mail: gdilafruz@mail.ru

+998 937762882

Abstract: This article reviews and analyzes a range of methods and strategies that have been proven effective in enhancing the speech competence of future English

language teachers. The findings of this article highlight the importance of integrating a competency-oriented approach into the training and development of future English language teachers. By adopting these methods, teacher education programs can effectively enhance the speech competence of aspiring teachers, enabling them to become more confident and proficient communicators in the English language.

Key words: *Speech competence, competency-oriented approach, English language teachers, teaching effectiveness, training and development*

KIRISH.

Kompetentlik atamasi, odatda, muayyan ijtimoiy-kasbiy maqomdagi shaxslarga nisbatan qo'llaniladi va ularning tushunchasi, bilim va ko'nikmalari ular bajaradigan vazifalar va ular hal qiladigan muammolarning murakkabligining real darajasiga mos kelishini tasdiqlaydi. Kompetentlik va kompetensiya o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog'liq tushunchalardir.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, kompetensiyalar dinamik xususiyatga ega, chunki ular insonning shaxsiy tarkibidagi o'zgarmas sifat emas, balki ularni rivojlantirish uchun sabab bo'lmasa, rivojlanish, takomillashtirish yoki butunlay yo'q bo'lib ketishga qodir.

Kompetensiyaning malakalardan farqi shundaki, u anglangan, lekin avtomatlashmagan. Bu esa insonga nafaqat odatiy, balki yangi nostandart holatda ham harakat qilish imkoniyatini beradi. Agar kompetentlik qobiliyat sifatida qaralsa, u holda insonning turli xil qobiliyati va iste'dodi haqida so'z boradi. Bunda "qobiliyat" tushunchasi talqinida turlicha yondashuvlar mavjud. SHaxsli yondashuvga ko'ra, qobiliyatlar shaxsning muvaffaqiyatli faoliyatga xos xususiyati yoki xususiyatlari to'plami, shu jumladan, insonning emotsional va irodaviy xususiyatlari sifatida tushuniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Kompetentlik – muayyan layoqatga ega bo'lish bilan bir qatorda ushbu faoliyat turiga nisbatan shaxsiy munosabatni ham ko'rsatuvchi tushunchadan

iborat, degan g'oyani ilgari surgan finlyandiyalik olim G.Garfinkel o'zining ilmiy asarlarida mazkur tushunchaga mulohaza bildiradi. U kompetentlikni shaxsning bilim, ko'nikma va tajribalari, ijtimoiy-professional, ya'ni jamiyatda egallagan kasbiy mavqeiga mosligi, o'z lavozim vazifalarini bajarish, unga doir muammolarni hal qilishga qodirligi tushunadi [1,25-b.]. Ushbu ta'rif orqali "Kompetentlik shaxsning muayyan bilim va malakalarga egaligi hamda u yoki bu vaziyatda samarali faoliyat yuritish uchun tayyor ekanligi" haqidagi xulosaga kelish mumkin.

F.Delamare va J.Winterton kompetensiyani ma'lum bir faoliyat talab qiladigan standart xulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlikni esa ushbu talab (standart)ga moslik darajasi, ya'ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi deb tavsiflaydilar [2,28-b.].

J.Raven kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadini shaxsning shakllanishi, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlab beruvchi qobiliyatlari, iste'dodini ochish va rivojlantirishda ko'radi hamda bunday yondashuv o'quvchi-talabalarga hayotda o'z o'rniga ega bo'lish, o'zini muntazam rivojlantirib borish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishini ta'kidlaydi [3,42-b.].

Olimning tadqiqotlarida 39 turdagi kompetensiyalar ro'yxati keltiriladi va ular "qo'llab- quvvatlangan layoqat turlari" deb izohlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Funksional-genetik yondashuv qobiliyatni u yoki bu psixik jarayonning amalga oshiruvchi funksional tizimlarning samaradorlik tavsifi sifatida talqin etadi. Bunday holda shaxs tuzilmasidagi kognitiv, motivatsion va xulqiy kompetentlarning birligini ifodalovchi kompetentlik va kompetensiya tushunchalari qobiliyatlar sifatida qarash mumkin.

Differensial yondashuviga ko'ra, qobiliyat, bilim, ko'nikma va malakalarga kirmaydigan, ammo faoliyatning yangi usullari va yo'llari bilan tez va oson o'qitishga xizmat qiluvchi faoliyatni bajarish samaradorligini aniqlovchi insonning individual-psixologik xususiyati sifatida qaraladi.

Bunda qobiliyat inson imkoniyatining bir qismini tashkil etadi. SHu bilan birga, qobiliyatlarning inson imkoniyatlarining bir qismi, muvaffaqiyat esa iroda, motiv va ijtimoiy muhitga bogʻliq [4,15-b.].

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Jahon pedagogikasiga oid ilmiy-metodik manbalarda *“kompetensiya”*, *“kompetentlik”*, *“kompetensiyaviy yondashuv”*, *“kompetentlik tuzilmasi”* kabi bir qator tushunchalarning bir-biriga bogʻliqligi va farqli jihatlari haqida qator mulohazalar bildirilgan. Xususan, A.V.Xutorskiy, A.K.Stolyar, A.I.Subbetto. A.K.Merkova, M.K.YAerst, E.A.Zeer, I.A.Zimnyaya kabi mutaxassis olimlarning ishlari shular jumlasiga kiradi.

A.I.Subbettoning ilmiy ishlarida *“kompetentlik”* va *“kompetensiya”* tushunchalarining *“sifat”*, *“xususiyat”*, *“mahorat”* toifalari bilan nisbatda mohiyatini ochish tendensiyasi etakchilik qiladi. Mazkur olimning taʼkidlashicha, *“kompetentlik”* va kompetensiya tushunchalari murakkab tuzilmali va dinamik bilimdir, ammo *“sifat”* va *“xususiyat”* toifalariga nisbatan ikkinchi darajali hisoblanadi. SHuning uchun ham ular quyidagi umumiy tamoyillariga boʻysunadi: a) sifatning yuzaga kelishi va rivojlanishida potensial hamda dolzarb tashqi va ichki ziddiyatlar tizimining mavjudlik tamoyili; b) butunlik va tizimlilik tamoyili, bunda sifatning ichki tuzilmasi obʼektining sifatini potensial sifat darajasida, sifatning tashqi tuzilmasi esa obʼekt yoki jarayonning tashqi muhit bilan oʻzaro taʼsiri sifatini real sifat kabi aniqlaydi; v) jarayonlar sifatni natijalar sifatida ifoda ettirish tamoyili va boshqalar [5,28-b.].

V.Xutmaxer, R.Uayt, Dj.Raven, N.V. Kuzmina, A.K.Markova, V.N. Kunitsina, G.E.Belitskaya, L.I. Berestova, V.I. Baydenko, A.V.Xutorskoy, N.A.Grishanova va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlariga binoan, taʼlim tizimida kompetensiyali yondashuv uchta bosqichga ajratilgan [6,7-b.].

Birinchi bosqichda – (1960-70 y.y) *“kompetensiya va kompetentlik”* atamalarining farqini aniqlash, Del Xayms tomonidan xorijiy tillarni oʻqitish jarayonida *“Kommunikativ kompetensiya”* yaratildi. Uning fikricha, bu

jarayon kommunikativ faoliyatni ifodalab, asosiy e'tibor o'quvchida kundalik hayotga oid ma'lumotlarni o'z nutqida ifoda qila olish malakasini shakllantirishni o'z ichiga oladi [7,5-b.].

Ikkinchi bosqichda – (1970-90 y.y) birorta xorijiy tilni egallash, boshqaruv, muloqotga o'rgatish jarayonlarida ijtimoiy kompetensiya va shaxsning kompetentligi vujudga keldi, 1984 yilda Dj.Raven o'zining “Zamonaviy jamiyatda kompetentlik” mavzusida tadqiqot yaratdi. SHuningdek, u 37 ta turli kompetensiyalarni ishlab chiqdi hamda amaliyotga tatbiq qilishni taklif qildi. Ushbu kompetensiyalardan “tayyorgarlik”, “javobgarlik”, “biror narsani qilishga qodir bo'lish”, “o'ziga ishonish”, “erkin fikrlash”, “tanqidiy tafakkur” kabilar yirik rejada Dj.Raven izdoshlari yosh olimlarning tadqiqot ob'ektiga aylanib, o'rganildi.

Uchinchi bosqichda – Evropa kengashi tomonidan (1990 yil) strategik, sotsial, sotsiolingvistik, til va o'quv-kognitiv kompetensiyalar ishlab chiqildi. So'ngra, Rossiyalik bir qancha olimlardan N.V.Kuzmin, I.A.Zimnyaya, A.K.Markova, L.A.Petrovskaya, L.M.Mitino va boshqa tadqiqotchilar turli kompetensiyalarni amaliyotga tatbiq qilishdi[8,231-b.]. SHuningdek, kompetensiyali yondashuv asosidagi ta'limning rivojlanishida YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan bir qancha muhim kompetensiyalar o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini belgilab berdi.

XULOSALAR.

Yuqorida keltirilgan tahlillar va mulohazalardan kelib chiqib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish ularning kelajakda milliy ta'lim tizimimiz talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassis bo'lishlarida o'z samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гарфинкель Г. Концепция и экспериментальные исследования «доверия» как условия стабильных согласованных действий/

- Пер. с англ. А.М.Корбута. –Москва: Социологическое обозрение, 2009. – Т.8. – № 1. – С.3–25
2. DelamareF., WintertonJ. What is Sompetence? – Human Resource Development International, Vol. 8, No.1, March 2005, P.28.
 3. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация. – Москва: Когито- Центр, 2002. – 42 с.
 4. Temirov S.Y. Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2014. - 15-16-betlar.
 5. Суббетто А.И. Интеграционная модель выпускника вуза на базе системно-деятельностного и компетентностного подходов. – Кострома: Изд-во КГУ им. Некрасова. – 2005. – 28 с.
 6. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. –М., 2003. № 5. –С. 7-9.
 7. Щукин А.Н. Интенсивные методы обучения иностранным языкам. Научный журнал//Иностранные языки в школе ISSN: 0130-6073. № 6.–М.: 2002. –С. 5-6.
 8. Ro‘zmetova M.SH. Umumiy o‘rta ta’lim 5-7-sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalar. - Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Toshkent, 2020. – 231 b.